



9-sinf. BSB-6 (variant)

____-sonli umumta'lim maktabi ____-sinf o'quvchisi _____

6 laboratoriya mashg'uloti.

Monoduragay chatishtirishga doir masalalar yechish

1. Pomidor mevasining qizil rangi dominant (A), sariq rangi ressesiv (a) gen tasirida rivojlanadi. Naslda fenotip bo'yicha 1:1 va 3:1 nisbat olish uchun qanday genotipli pomidorlar o'zaro chatishtirilishi kerak. Masalaning to'liq yechimini yozing.
2. Drozofilla pashshasi qanotining uzun bo'lishligini dominant A geni va kalta bo'lishligini retsessiv a geni ta'minlaydi. Gomozigotali uzun qanotli pashshalar kalta qanotli pashshalar bilan chtashtirilganda F_1 pashshalarining qanotlari qanday bo'ladi? F_1 da olingan urg'ochi va erkak pashshalar o'zaro chatishtirilsa, F_2 da olingan pashshalarning geneotipi va fenotipini aniqlang.
3. G'o'zada tolasining qo'ng'ir rangi gomozigota holatdagi gen bilan ifodalanadi. Ushbu genning retsessiv alleli oq rangni yuzaga keltiradi. Geterozigota organizmlarning tolası novvot rangda bo'ladi. Qo'ng'ir tolali g'o'za oq tolali g'o'za navlari bilan chatishtirilganda F_1 da 1800 ta o'simlik olingan. Shundan nechtasining tolası qo'ng'ir rangda bo'ladi? Masalaning to'liq yechimini yozing.
4. Odamlarda sochning jingalak bo'lishi (J), tekis bo'lishi (j) ustidan chala dominantlik qiladi, shuning uchun geterozigotalarning sochi to'lqinsimon bo'ladi. Sochlari to'lqinsimon ayol, sochi to'lqinsimon erkakga turmushga chiqdi. Bu oila farzandlarining fenotipi va genotipini aniqlang. Masalaning to'liq yechimini yozing.
5. G'o'zada uzun poya (B), past poya (b) ustidan dominantlik qiladi. Uzun va past poyali o'simliklar o'zaro chatishtirilganda F_1 da uzun poyali o'simliklar hosil bo'lgan. Birinchi avlod duragaylari past poyali o'simliklar bilan chatishtirilganda F_2 da 72 uzun va 72 ta past poyali o'simliklar olindi. Chatishtirishda ishtirok etgan o'simliklar genotipini aniqlang. Masalaning to'liq yechimini yozing.



Baholash mezonlari

Har bir to'g'ri javob uchun	Maksimal ball
Masala to'liq (berilishi, yechimi, javobi) va to'g'ri ishlangan bo'lsa	2



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI